

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



“KELISHILDI”



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA “O'ZBEKISTON TARIXI”
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(majburiy fan bo'yicha)**

Toshkent – 2025

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2025-yil 21-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"Jahon tarixi" kafedrası mudiri, dotsent., t.f.d. B.Xaynazarov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrası mudiri, prof., t.f.d.A.Xoliqulov

Taqrizchilar: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti, R. Siddiqov

TDU "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti M.Inatov

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan. O'zbekiston tarixi fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarining "O'zbekiston tarixi" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi", "O'rta asrlarda O'zbekiston tarixi", "Yangi va eng yangi davrda O'zbekiston tarixi" davrlaridan abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston tarixi (fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda tarix ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va abituriyentlarning tarix ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston tarixi fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan. Dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. O'zbekiston tarixi qismida asosan xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish, mamlakatimizning demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning Tarix fanlari bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston tarixi fanidan imtixon bor boshqa ta'lim yo'namishlari bo'yicha imtihon topshiruvchi abituriyentlar O'zbekiston tarixidan: O'zbekiston tarixini o'rganishdagi asosiy nazariy metodologik masalalar. Markaziy Osiyo ibtidoiy jamiyat davrida. Urug'chilik jamoalarining makonlari. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Qadimgi Sug'diyona (So'g'd), Baktريا, Xorazm. "Avesto". Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylarga qarshi mustaqillik uchun kurashi. Makedoniyalik Aleksandr istilosi va Spitamen qo'zg'oloni. O'rta Osiyo Salavkiylar davlati va Yunon-Baktريا davlati tarkibida. Qang'. Parkana. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va uning roli. Kushon podsholigi. Ilk o'rta asrlar davlatlarining shakllanishi (Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi). O'rta Osiyo xalqlarining arablar istilosiga qarshi kurashi. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Movarounnahr Somoniylar davrida. G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Qoraxoniylar bosqini va Xorazmshoh-anushteginlar davlatining

yuksalishi. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi xususiyatlar. O'rta Osiyoda uyg'onish davrida fan va madaniyat. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining kurashi. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida. Amir Temur davlati. Movarounnahr Temuriylar davrida.

Abituriyent. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlari. XVII-XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot. O'rta Osiyo xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, xo'jaligi. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining rivojlanish xususiyatlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq va boshqa turkiy ko'chmanchi qabilalar yozma tarixiy manbalarda. Qoraqalpoqlarning shakllanish jarayonlari. XVIII-XIX asrlarda quyi Sirdaryo qoraqalpoqlari. Qoraqalpoq madaniyati. O'rta Osiyo xonliklarining savdo-diplomatik aloqalari. XVI-XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati. Ingliz-rus raqobati. O'rta Osiyoga Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. 1873-1876 yillarda Qo'qon xonligidagi xalq qo'zg'oloni. Turkistonning agrar va sanoat rivojlanishidagi muammolar va Rossiya imperiyasi siyosati. XIX asr oxirida Turkistonda milliy ozodlik kurashlari. XIX asr oxiri –XX asr boshida Turkiston xalqlari madaniyati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Milliy ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik. Turkiston birinchi jahon urushi yillarida. 1916 yil milliy ozodlik kurashi. 1917 yil siyosiy jarayonlarning Turkistonga ko'rsatgan ta'siri. Turkistonda sovet tuzumini o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 1917-1924 yillarda Buxoro va Xiva xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. 1924 yil O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidagi muammo va ziddiyatlar. O'zbekiston totalitar tuzum sharoitida – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Siyosiy qatag'onlar va ularning oqibati. Qoraqalpog'iston ASSRning O'zSSR tarkibiga kiritilishi. O'zbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: yutuqlar va ziddiyatlar. Milliy ziyolilarni qatag'on qilinishi. Madaniy hayotda "sotsialistik realizm"ni hukmronligi. O'zbekiston "Qayta qurish" yillarida. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi – O'zbekiston tarixidagi yangi tarixiy bosqich. O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va mustaqilligi. O'zbekistonda mustaqil demokratik davlat sifatida siyosiy tuzumning shakllanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqil Qoraqalpog'iston tarixi, uning davlat tuzumi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga qaratilgan siyosat. Iqtisodiy islohotlar: bosqichlari va natijalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va uni bartaraf qilishga qaratilgan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirilishi. O'zbekistonning ma'naviy hayoti. O'zbekistonning jahonda va MDHda egallagan mavqei. Mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari. Mustaqil O'zbekiston-demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi yo'lida. 1990-2020 yillarda jaxon mamlakatlarining integratsiyalashuvi jarayonlari. Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishining yangi bosqichi. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab olinishi. "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolning oshirilishi. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konseptual jarayonlarning yanada faollashuvi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'ttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqilishi. Strategiyani ishlab chiqishda yangi tahrirdagi Konstitutsiya muhim huquqiy asos vazifasini bajarganligi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" kitobi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim nazariy kontseptual manbai

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH

MEZONI

Ko'zi o'zlar uchun ijodiy imtihon 5 baholik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'zlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtdan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a'lo")ga baholanishi uchun:

- Abituriyent tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo'lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;

- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak;

- Javoblarda tarixiy voqealar bo'lib o'tgan jo'g'rofiy hudud ham aniq ifodalinishi zarur;

- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko'ra, ko'proq aniq faktlar hisobga olinadi;

- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak;

- Qo'shimcha savollarga ham to'liq va to'g'ri javob berish lozim.

2. Abituriyentning javobi 4 («yaxshi»)ga baholanishi uchun:

- Tarixning hamma bosqichlari bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lishi va uni dadil izohlay olishi lozim;

- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo'shib asoslay olishi kerak;

- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;

- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng yangi tarixi (1991-2020 yillar) bilan bog'liq voqealariga aniq javob bera olishi kerak;

-Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo'shimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 («o'rta»)ga baholanishi uchun:

-Abituriyent belgilangan savollarga maktab tarix fani dasturi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lib, javoblarni har tamonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;

-Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;

-Javob berayotganda bo'lib o'tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

-Abituriyent tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kunimizgacha bo'lgan tariximizni asoslay olmasa;

-Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davlatchilik tarixidan etarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa;

-Tarixiy voqealarni aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;

-Mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;

-Tarixiy mavzular bo'yicha berilgan qo'shimcha savollarga mujmallik va noaniqlik bilan javob berilsa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2025-2026-o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

O'zbekiston tarixi fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

O'zbekiston tarixi fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.